


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**FILOLOGIYA FANLARI BLOK MODULI BO'YICHA  
UMUMIY O'RTA TA'LIMNING  
O'QUV DASTURI  
( III SINF)**

**O'ZBEK TILI**



**Toshkent-2018**

## **TUSHUNTIRISH XATI**

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining rus guruхlarida o‘zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o‘qитiladi. O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o‘qish va ishslash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari, o‘zbek tilidan egallagan nutqiy va lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining o‘zbek tili fani 3-sinf o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standartining talablari asosida tuzilgan.

### **O‘zbek tili fanini o‘qitishning maqsadi:**

o‘quvchilarning o‘qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olish, eshitilgan axborotni idrok etish, voqeа-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish; o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalarining ijodiy merosini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

### **O‘zbek tili fanini o‘qitishning vazifalari:**

o‘quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;

o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishni shakllantirishdan iborat.

3-sinfda o‘quvchilar o‘zbek tilini nutqiy tamoil asosida o‘rganadilar. Bunda Vatanim, sinfimiz, oila, mehmonda, kuz, polizda, mevalar, qish, yangi yil, kun tartibi, sport o‘yinlari, kitobim-oftobim, o‘simliklar, bahor, bayramlar, uy hayvonlari va parrandalar, yovvoyi hayvonlar va qushlar, yoz kabi mavzular qamrab olingan. Ushbu mavzular asosida hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilarda o‘zbek tilida so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lab gap tuza olish, nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olish kompetensiyalarini shakllantirishi lozim. Shundan kelib chiqib o‘quv dasturida har bir nutqiy mavzu doirasida leksik-grammatik minimum (faol so‘zlar, birikmalar, so‘z shakllari), tinglab tushunish va so‘zlash, talaffuz qilish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari

yuzasidan materiallar berildi. Ushbu materiallar o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlandi. Bunda nutqiy kompetensiya uzviylik va uzlucksizlik asosida belgilangan nutqiy mavzular va ular bo‘yicha beriladigan faol so‘z va birikmalar, nutq namunalarida ifodalanadi. O‘zlashtirilgan so‘zlar, birikmalar va egallangan bilimlar orqali o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning shakllantirishiga erishiladi.

O‘qituvchilar mustaqil ijodiy yondoshgan holda o‘quv dasturi asosida o‘zbek tili fanining yillik taqvim-mavzu rejasini ishlab chiqishlari, fan metodbirlashmasida muhokama qilib, matabning pedagogik kengashida tasdiqlashlari lozim. Nazorat ishlarining mazmuniga axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda PISA baholash dasturi testlari singdirildi. Har chorakda videolug‘at diktanti, PISA testlari o‘tkaziladi. PISA testlari o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, kreativlikka, o‘qish, tushunish, yozish, matn bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilar uchun metodik yordam sifatida dasturning oxirida o‘zbek tili fanini mavzuiy rejalashtirish jadvali taqdim etildi. Jadvalda tayyor taqvim-mavzu rejaning andozasi berilgan. Shu bilan birgalikda dasturning oxirida foydalanilgan manbalar, shu asosida har bir mavzudan keyin adabiyotlar raqamlanib berildi. Har bir mavzu doirasida taqdim etilgan mazkur adabiyotlar o‘qituvchilarning bilimlarini mustahkamlab borishlariga yordam beradi.

### ( 68 soat )

#### **O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

mavzuga oid savollarni, audiovizual vositalar yordamida eshittirilgan gaplar, topishmoq, tez aytish, ertaklar, namoyish qilingan multfilm mazmunini tinglab tushunadi;

o‘rganilgan mavzular bo‘yicha savol-javob shaklida qisqa yoki to‘liq so‘zlab beradi;

savollar bilan murojaat etadi; salomlashish, xayrashishga oid muomala odobini vaziyatlarga mos holda qo‘llaydi;

mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qiladi;

berilgan matnni ifodali o‘qiydi, she’rni yoddan aytadi;

kichik matnni, maqol va tez aytishlarni ko‘chirib yozadi;

12-16 ta so‘zdan iborat videolug‘at diktanti yozadi.

#### **Vatanim (3 soat)**

**Lug‘at:** Vatan, tuproq, obod, davlat, o‘lka, ipak, ko‘mir, tabiiy boyliklar, dunyo, tinchlik, birdamlik, shahar, ko‘chalar, qurilishlar, turar joy binolari, maktab, bog‘cha, teatr, bog‘lar, favvoralar, yo‘llar, avtobus, mashinalar mavjud kabi tayanch so‘zlar; boy, chiroyli, bepoyon, baland, uzun, keng, mashhur, ko‘rkam, ulug‘, aziz kabi belgi bildiruvchi so‘zlar; yashamoq, sevmoq, faxrlanmoq,

tug‘ilmoq, bormoq, yurmoq, qurilmoq, dam olmoq, qatnamoq kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar.

**Nutq namunalari:** O‘zbekiston – serquyosh o‘lka. Unda gaz, neft, oltin, ko‘mir kabi tabiiy boyliklar mavjud. O‘zbekiston yashil vodiylari va qadimiy shaharlari bilan mashhur. Biz O‘zbekistonni sevamiz. Toshkent – Vatanimiz poytaxti. Shahrimiz juda chiroyli. Ko‘chalari keng va ozoda. Shahrimizning yo‘llari tekis. Favvoralar, teatr va istirohat bog‘lari ko‘p.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlarni, berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z va so‘z birikmasi, sodda gaplarni yoza olish.

### Sinfimiz( 3 soat)

**Lug‘at:** sinf, qatorlar, kitob javoni, yozuv taxtasi, o‘qituvchi stoli, suratlar, sinf burchagi, devorda, kitob javonida, qo‘ng‘iroq, dars, mashq kabi tayanch so‘zlar; yonida, ichida, ustida, oldida, o‘rtada, o‘ng tomonda, chap tomonda kabi ko‘makchi so‘zlar; chalindi, boshlandi, kiring, o‘tiring, tinglang, o‘qing, yozing, diqqat bilan, tartib bilan kabi faoliyatni bildiruvchi so‘zlar, o‘rin-joyni ko‘rsatuvchi -da qo‘shimchasi .

**Nutq namunalari:** Sizning sinfigiz qanday? Bizning sinfimiz keng va yorug‘. Sen qayerda o‘tirasan? Men o‘rta qatordagi birinchi partada o‘tiraman. Bugun necha soat dars bo‘ladi? Bugun to‘rt soat dars bo‘ladi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** “Sinfimiz” mavzusiga oid so‘zlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga o‘rganilgan vositalar asosida javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuzish, so‘z va so‘z birikmasi, sodda gaplarni yoza olish.

### Kuz (2 soat)

**Lug‘at:** kuz fasli, havo, kunlar, barglar, shamol, bulut, yomg‘ir, dalalar, bog‘lar, polizlar, hosil, dehqonlar, yig‘im-terim kabi tayanch so‘zlar; sarg‘ayadi, to‘kiladi, qisqaradi, soviydi, pishadi kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi so‘zlar; mo‘l, shirin-shakar, salqin, tez-tez kabi belgi bildiruvchi so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Kuz qanday fasl? Kuzda havo qanday bo‘ladi? Kuzda havo salqin bo‘ladi va kunlar soviydi. Kuzda nimalar pishadi? Kuzda mevalar pishadi va yig‘im-terim boshlanadi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunish va javob bera olish; tasdiq yoki inkor so‘zlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish, rasm mazmunini savollar va tayanch so‘zlar asosida so‘zlab bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish, o‘rganilgan so‘z, so‘z birikmalarini o‘zbek tilining imlo qoidalari asosida ko‘chirib yoza olish.

### **Mevalar (2 soat)**

**Lug‘at:** mevalar, mevali daraxtlar, anor, o‘rik, nok, uzum, olcha, gilos, behi, anjir, bog‘lar, uzumzor, olmazor, savat kabi tayanch so‘zlar; o‘sadi, pishadi, terib olinadi, yuboriladi kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi so‘zlar, shirin, nordon, har xil, qirmizi, to‘q qizil, suvli, suvsiz kabi belgi bildiruvchi so‘zlar, hamma, barcha olmoshlari.

**Nutq namunalari:** Bu qanday bog‘? Bu olmazor. Bu bog‘da turli xil olmalar o‘sadi. Bu qanday anor? Bu shirin anor. Ana u nokmi? Yo‘q, bu behi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunib, javob bera olish, “Mevalar” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni **hamma**, **barcha** olmoshlarini to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish, so‘z birikmasi va sodda gaplarni yoza olish.

### **Polizda (2 soat)**

**Lug‘at:** poliz, piyoz, bodring, karam, sabzavot, hosil, dehqonlar, ko‘p, qutilar, ombor kabi tayanch so‘zlar; saqlanadi, yetkaziladi, yetiladi, yig‘ib olinadi, o‘smoq, yordam bermoq, kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Polizda nimalar o‘sadi? Polizda karam, kartoshka, sabzi, piyoz va boshqa sabzavotlar o‘sadi. Polizda qanday sabzavotlar yetishtiriladi? Nima uchun sabzavotlarni kuzda yig‘ib olinadi?

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunib, javob bera olish, “Polizda” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish, so‘z birikmasi va sodda gaplarni yoza olish.

### **Sabzavotlar (2 soat)**

**Lug‘at:** poliz, sabzavotlar, sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, pomidor, bodring, karam, qovoq, qovun, tarvuz, handalak kabi tayanch so‘zlar; yangi uzilgan, achchiq, og‘ir, yengil, ko‘m-ko‘k, sap-sariq, dumaloq, yo‘l-yo‘l, qip-qizil, foydalari kabi belgi bildiruvchi so‘zlar; usti, ichi so‘zları.

**Nutq namunalari:** Sabzavotlar qayerda o‘sadi? Sabzavotlar polizda o‘sadi. Polizda sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, pomidor, bodring, karam, qovoq kabi sabzavotlar pishadi. Kuzda yana nimalar pishadi? Kuzda...

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni, audiovizual vositalar yordamida eshittirilgan gaplar ma’nosini tushuna olish, tasdiq yoki inkor so‘zlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini so‘z tarkibida ona tilidagi tovushlardan farqlagan holda o‘qiy olish, o‘rganilgan so‘zlar, so‘z birikmalarini to‘g‘ri ko‘chirib yozish;

### Oila (3 soat)

**Lug‘at:** ota, ona, bobo, buvi, o‘g‘il bola, qiz bola, aka, uka, opa, singil, amaki, xola kabi oila mavzusiga oid faol so‘zlar. -mi, -chi so‘roq yuklamalari, tasdiq va inkorni bildiruvchi ha, yo‘q so‘zlar

**Nutq namunalari:** Bu kim? Bu bobom, bu otam, onam, mana bu qiz bola, mana bu ukam.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** “Oila” mavzusiga oid so‘zlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga o‘rganilgan vositalar asosida javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni -mi, -chi so‘roq yuklamalari, tasdiq va inkorni bildiruvchi ha, yo‘q so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuzish, so‘z va so‘z birikmasi, sodda gaplarni yoza olish.

### Kun tartibi (3 soat)

**Lug‘at:** kun tartibi, ertalab, kunduzi, kechqurun, badantarbiya, kiyinaman, nonushta, tushlik, kechki ovqat, turaman, yotaman, ketaman, kelaman kabi tayanch so‘zlar. -dan qo‘shimchasi, qayerdan? so‘rog‘i.

**Nutq namunalari:** Har kuni tartib bilan qanday ishlarni bajarasan? Ertalab turaman va yuz-qo‘limni yuvaman. Keyin badantarbiya qilaman. Maktabdan kelib ovqatlanaman.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunish, savollarga javob berish va o‘zlashtirilgan mavzular va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘zlashtirilgan so‘z, so‘z birikmalarini ko‘chirib yoza olish.

### Qish (2 soat)

**Lug‘at:** qish fasli, qor, qorbo‘ron, yaxmalak, muz, sirpanchiq, chana, sovuq; kun, tun, uzun, yer, qisqa, oppoq, momiq, yog‘adi, muzlaydi, uchadi kabi mavzuga oid tayanch so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Hozir qaysi fasl? Hozir qish fasli. Yana qanday fasllar bor? Bahor, yoz, kuz. Qish fasli qachon keladi? Qish fasli kuz faslidan keyin keladi. Qishda ob-havo qanday bo‘ladi?

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tushunib javob bera olish, “Qishda” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, gaplarni bo‘g‘inlab o‘qiy olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va sodda gaplarni yoza olish.

### **Yangi yil bayrami ( 2 soat)**

**Lug‘at:** yangi yil, atrofida, turli, bezadik, niqob kiygan, quvnoq, aytdilar, tabriklayman kabi tayanch so‘zlar . -ning qo‘srimchasining qo‘llanishi.

**Nutq namunalari:** Yangi yil bayrami boshlandi. Archamizni turli o‘yinchoqlar bilan bezadik. Archa atrofida niqob kiygan bolalar o‘ynadi. Anvar tulki bo‘ldi, Saida quyon bo‘ldi. Hamma raqsga tushsin. Qorqiz qo‘sish qaytdi. Yangi yilingiz bilan!

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob bera olish, sodda gaplar tuza olish. Tinglab yoki o‘qib, eslab qolingga matnning asosiy mazmunini so‘zlay olish.

**Talaffuz qilish, yozish va o‘qish:** E – u tovushlarining talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab, farqlagan holda o‘qiy olish, buyruq-istik fe’llarini talaffuz qilib va ko‘chirib yoza olish.

### **Sport (3 soat)**

**Lug‘at:** tozalik, tennis, sog‘lik, to‘p, kurash, doimo, ertalab, badantarbiya, tishini, mashq kabi tayanch so‘zlar;

o‘ynamoq, yugurmoq, suzmoq, yuvmoq, shug‘ullanmoq, sakramoq, mashq qilmoq kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar; **-ni** qo‘srimchasining egalik shakllari bilan qo‘llanishi , **B-p** tovushlarining talaffuzi.

**Nutq namunalari:** Lola qanday qiz? Lola ozoda qiz. Nodir ertalab doim tishini yuvadi. Sovun bilan qo‘llarini yuvadi. Qo‘lini iflos qilmaydi va kasal bo‘lmaydi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish va sodda gaplar tuza olish. Tinglab yoki o‘qib eslab qolingga matnning asosiy mazmunini so‘zlay olish.

**Talaffuz qilish, yozish va o‘qish:** B–p tovushlarini farqlagan holda o‘qiy olish. Egalik shakllari bilan kelgan -ni qo‘sishchali so‘zlarni talaffuz qilib, yoza olish.

### **Ob-havo (3 soat)**

**Lug‘at:** ob-havo, ochiq, iliq, mayin shabada, qattiq shamol, salqinlashdi, soviydi, isiydi, kechalar, kunduzi, osmon, qoplandi kabi mavzuga oid tayanch so‘zlar; kecha, bugun, ertaga, hozir, kechasi, kunduzi, kechqurun, keyin kabi paytni bildiruvchi so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Ob-havo qanday? Ertalab havo ochiq. Kechqurun salqin bo‘lyapti.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** ob-havoga oid so‘zlar, ular bo‘yicha berilgan savollarni tushunib javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish.

### **Bahor (3 soat)**

**Lug‘at:** bahor fasli, tabiat, boychechak, lolaqizg‘aldoq, lolalar, barglar, kurtaklar, ekin, varrak, gala-gala kabi tayanch so‘zlar; barg chiqaradi, gullaydi, isiydi, haydaladi, ekiladi, ochiladi, uyg‘onadi kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar; -a(y)di, -iladi qo‘sishchalari.

**Nutq namunalari:** Bahorda kunlar isiydi. Boychechak ochiladi. Bolalar varrak uchiradi. Tabiat uyg‘onadi. Atrof ko‘m-ko‘k bo‘ladi. Lolalar qip-qizil bo‘lib ochiladi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarni, suhbat mazmunini tushunish, tasdiq yoki inkor so‘zlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish va savollarga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, kichik matnlarni to‘g‘ri o‘qib, mazmunini tushunish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

### **Gullar (3 soat)**

**Lug‘at:** gullar, moychechak, boychechak, qoqio‘t, atirgul, lola, binafsha, gulladi, o‘sadi, hidj, chiroyli, rang-barang kabi tayanch so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Bular qanday gullar? Boychechak qayerda o‘sadi? Lolaqizg‘aldoq qanday rangda? Qanday gullarni yaxshi ko‘rasan?

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

### **Bayramlar (3 soat)**

**Lug‘at:** bayram, onajonim, buvijonim, sog‘ bo‘ling, gullar, sovg‘a, Navro‘z, yangi kun, qadimdan, sumalak, mazali, tantanalar kabi tayanch so‘zlar; nishonlanadi, tabriklaydilar, xursand bo‘ldilar, boshlanadi, pishiradilar, qo‘yiladi kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar;

**Nutq namunalari:** Bugun 8-mart. Men buvijonimni tabriklayman. Hamisha sog‘ bo‘ling! Navro‘z bayrami 21-martda nishonlanadi. Hamma yerda xalq sayillari boshlanadi. Karnay-surnay chalinadi.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlashish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

### **Uy hayvonlari va parrandalar (3 soat)**

**Lug‘at:** uy hayvonlari: sigir, buzoq, echki, uloq, toychoq, ot, qo‘y, qo‘zichoq, mushuk, kuchuk, ot; parrandalar: tovuq, xo‘roz, jo‘ja, o‘rdak, g‘oz; o‘t, sut, go‘sht, don, yeydi, beradi, foydali, qo‘riqlaydi, sut beradi, yuk tashiydi kabi tayanch so‘zlar; chaqqon, ozg‘in, kichkina kabi belgi bildiruvchi so‘zlar .-cha, -choq, -loq, -gina kichraytirish qo‘shimchalari.

**Nutq namunalari:** Bu nima? Bu sigir. Sigir nima yeydi? Sigir o‘t va yem yeydi. Sigirning bolasi qanday ataladi? Sigirning bolasi buzoqcha. O‘rdak va g‘oz suvda suzadi. O‘rdak ham tuxum beradi. Uyingizda qanday uy hayvonlari bor?

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

### **Yovvoyi hayvonlar va qushlar (3 soat)**

**Lug‘at:** yovvoyi hayvonlar: sher, yo‘lbars, fil, bo‘ri, tulki, ayiq, kiyik, quyon, kit, baliq, maymun, ilon; qushlar: qaldirg‘och, chumchuq, burgut, kaklik, laylak, musicha, bulbul, qanot, tumshuq, dum, o‘rmon, tog‘, dengiz, okean kabi tayanch so‘zlar; yashaydi, qo‘nadi, uchadi kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar, ulkan, vaxshiy, qo‘rqinchli, kuchli, epchil, o‘tkir, sezgir, qo‘rqqoq kabi belgi bildiruvchi so‘zlar; **ham, xuddi** yuklamalari.

**Nutq namunalari:** Bular qanday hayvonlar? Bular yovvoyi hayvonlar. Yovvoyi hayvonlar qayerda yashaydi? Timsoh qayerda yashaydi? Yovvoyi hayvonlar nima yeydi? Yo‘lbars, sher, bo‘ri, timsoh, tulki go‘sht yeydi. Qaldirg‘och qanday qush? – Qaldirg‘och eng chiroyli qush.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

### **Hayvonot bog‘ida (3 soat)**

**Lug‘at:** hayvonot bog‘i, qafasda, maymun, yo‘lbars, bo‘ri, yovvoyi hayvonlar, sher, ilon, boshqa, fil kabi tayanch so‘zlar; u yerda, yuribdi, boraman, boramiz, sudraladi, yashaydi kabi harakatni bildiruvchi so‘zlari, edi, ekan so‘zlarining qo‘llanishi.

**Nutq namunalari:** Biz kecha hayvonot bog‘iga bordik. U yerda yovvoyi va uy hayvonlarini ko‘rdik. Bir qafasda sher, yo‘lbars bor edi. Boshqa qafasda maymunlar bor ekan. Ilonlar kichkina qafasda, laylak va burgut katta qafasda ekan.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarni, o‘qilgan topishmoq, tez aytish mazmunini tushuna olish, berilgan savollarga javob bera olish, mavzu va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, kichik matnlarni o‘qiy olish, o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha faol so‘zlarni qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish.

### **Yoz (2 soat)**

**Lug‘at:** yoz fasli, yozgi ta’til, oromgoh, dam olish maskani, sayohat, tog‘, daryo, anhor kabi tayanch so‘zlar; xushmanzara, so‘lim, sho‘x, muzdek kabi belgi bildiruvchi so‘zlar; o‘ynaymiz, dam olamiz, suzamiz, cho‘milamiz, sayohatga chiqamiz, chiniqamiz kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar.

**-ga, -ka, -qa** qo‘shimchalarini, **qayerga?** so‘rog‘i.

**Nutq namunalari:** Yoz keldi. Yoz fasli eng sevimli fasl. Yozda o‘qish tugaydi. Yozgi ta’til boshlanadi. Men ham yozda oromgohga boraman. Bolalar bilan tog‘ga chiqamiz.

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlashish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish, mavzuga oid so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni yoza olish.

## O‘zbek tili fanini mavzuiy rejalashtirish

<b>t/r</b>	<b>Mavzularning nomi</b>	<b>Mavzularni o‘rganish uchun soatlar</b>	<b>Nazorat ishlari</b>	<b>Xatolar ustida ishlash</b>	<b>Takrorlash</b>	<b>Jami</b>
1	Vatanim	3				
2	Sinfimiz	3				
	N/I Videolug‘at diktanti		1	1		
3	Kuz	2				
4	Mevalar	2				
5	Polizda	2				
6	Sabzavotlar	2				
	N/I Test (PISA)		1			
7	Oila	3				
8	Kun tartibi	3				
	N/I Videolug‘at diktanti		1	1		
9	Qish	2				
10	Yangi yil bayrami	2				
	N/I Test (PISA)		1			
11	Sport	3				
12	Ob-havo	3				
	N/I Videolug‘at diktanti		1	1		
13	Bahor	3				
14	Gullar	3				
15	Bayramlar	3				
	N/I Test (PISA)		1			
16	Uy hayvonlari va parrandalar	3				
17	Yovvoyi hayvonlar va qushlar	3				
	N/I Videolug‘at diktanti		1	1		
18	Hayvonot bog‘ida	3				
19	Yoz	2				
	N/I Test (PISA)		1			
	<b>Jami</b>	<b>50</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>6</b>	<b>68</b>

